

### “ENASHAMOL” QISSASIDA MILLIY RUH

Xudoymurodova Xuriyat Muxiddinovna

TerDU dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12176638>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasi haqidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Bahodir Qobul asarlari oddiy, jo‘ngina o‘qilmaydi. Uni shunchaki ko‘z yugurtirib o‘qib ketish mumkin emas. Muallif asarlari o‘quvchidan fikrlash, mushohada qilishni talab qiladi. Chunki, yozuvchi ko‘nikilgan an‘anaviy badiiy uslublardan chekingan holda yangicha nasriy badiiy ifoda topishga urinadi. Buning uddasidan chiqadi ham. Qissalarda tasvirlangan bola, Ena, Ota, Mardon, Opa obrazlaridan tashqari juhud suratlash kabi qator obrazlar ham biz uchun begona emas. Ular ham yaqin o‘tmishning parchalari, lahzalari kabi xotiramizga oson o‘rnashadi.

**Kalit so‘zlar:** Ona, ena, qissa, milliy adabiyot, Bahodir Qobul, an‘ana.

#### THE NATIONAL SPIRIT IN THE STORY "ENASHAMOL".

**Abstract.** This article analyzes Bahadur Qobul's thoughts on the story "Enashamol". Bahadur Qobul's works are simple and cannot be read lightly. It is impossible to just read it with a glance. The author's works require the reader to think and observe. Because the writer tries to find a new prose artistic expression, withdrawing from the usual artistic styles. He can do it. In addition to the images of children, mothers, fathers, husbands, and sisters depicted in stories, we are also familiar with a number of images such as photographers. They are easily fixed in our memory like fragments and moments of the recent past.

**Key words:** Mother, mother, short story, national literature, Bahadur Qobul, tradition.

#### НАЦИОНАЛЬНЫЙ ДУХ В РАССКАЗЕ «ЕНАШАМОЛ».

**Аннотация.** В данной статье анализируются мнения о рассказе Бахадира Кабула «Энашамол». Произведения Бахадира Кабула просты, и их нельзя читать легкомысленно. Невозможно просто прочесть это с первого взгляда. Произведения автора требуют от читателя думать и наблюдать. Потому что писатель пытается найти новое прозаическое художественное выражение, отходя от привычных художественных стилей. Он может это сделать. Помимо изображений детей, матерей, отцов, мужей и сестер, изображенных в рассказах, нам знаком также ряд изображений таких фотографов. Они легко закрепляются в нашей памяти как фрагменты и моменты недавнего прошлого.

**Ключевые слова:** Мать, мать, рассказ, национальная литература, Бахадир Кабул, традиция.

Bugungi adabiy jarayonda o‘ziga xos uslubi, o‘ziga xos zamonaviy milliy badiiy talqinlari bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turuvchi adib Bahodir Qobuldir. Yozuvchi original uslubi, badiiy mahorati bilan katta adabiyotshunoslar va ijodkorlar nazariga tushdi. Jumladan, akademik Baxtiyor Nazarov u haqda shunday yozadi: "O‘zbek adabiyotiga so‘nggi yillarda bir qator iste‘dodli yozuvchilar kirib keldi. Bu avlod vakillari milliy adabiyotimizni yangi bosqichga ko‘tarishga o‘z hissasini qo‘shishga jiddiy bel bog‘laganligi bilan ajralib turadi. Ana shundaylardan biri, qator qissa, hikoyalari bilan adabiyot ixlosmandlari o‘rtasida o‘zining hurmatli

oʻrni egallab, eng asosiysi yangi ovoz bilan kirib kelgan, mubolagʻasiz aytamanki, zabardast adib Bahodir Qobuldir"...

Ustoz juda toʻgʻri eʼtirof etganlaridek, Bahodir Qobul istiqloq davri oʻzbek adabiyotida oʻzining hech kimnikiga oʻxshamagan qissalari va hikoyalari bilan katta hurmatga sazovor boʻlgan adiblarimizdan biri.

Bahodir Qobulning "Otachiroq" toʻplamiga kirgan qissalari ("Enashamol", "Bogʻdagul", "Oqdala", "Otachiroq", "Otahayot", "Oʻspirinlik", "Enayoʻl") va hikoyalari ("Otamozor", "Enabuloq", "Kunga matal kampirlar", "Tanovar") yozuvchi tugʻilib oʻsgan qadim va koʻhna Samarqand, uning qishloqlari Oʻsmat, Turkqishloq, Oyoqortogʻ, Jarkoʻchada yashovchi oʻzbeklar hayotidan hikoya etadi. Ochigʻi, muallifning mazkur qissalarini oʻqib, yozuvchi "oʻzbek" degan millatning, uning "oʻzbekona milliy qadriyatlarini", "oʻzbekona oddiy kundalik turmushi"ni, "oʻzbekcha soʻzlashuv tili"ni bu qadar aniq-tiniq tasvirlagan.

Darhaqiqat, akademik Baxtiyor Nazarov taʼkidlaganidek, Bahodir Qobul asarlari xohlagan bir xorijiy tillarga tarjima etilsa, "oʻzbek" degan xalq, millat qanday yashaydi, uning kundalik turmushi qanday, kechmishi qanday, nimaga eʼtiqod qiladi, milliy azaliy qadriyatlarini, milliy mentaliteti qanday kabi qator savollarga aniq-tiniq javob beradi.

Muallif asarlari sarlavhasida takror-takror ishlatilgan "Ota" va "Ena" soʻzlari ham eʼtiborimizni tortdi. "Enayoʻl", "Enashamol", "Otamozor", "Otahayot", "Otachiroq".

Yozuvchining bu soʻzlarga, sarlavhalarga takror-takror murojaatlari ham bejizga emas albatta.

Yozuvchi "Ota" va "Ena" soʻzlari zamirida ona Vatanni, Oʻzbek millati qoʻnim topgan kichik makon, ammo badiiy madaniyati, kechmishi uzoq ming yilliklarga tutashgan buyuk xalqni koʻradi. Qissalar uslubining betakrorligi nazarimizda, birinchidan badiiy ifoda uslubida koʻrinadi.

Bahodir Qobul nasrida keyingi paytda jahon adabiyotida tobora barcha janrlar tabiatiga singishib, janrlar sinkretizmini vujudga keltirayotgan esse janriga xos qator badiiy kanonlarni kuzatdik. Adib asarlari uslubida esse janri tabiatiga xos behad erkinlik, samimiylik, muallifning shaxsiy fikrlar oqimi yetakchilik qiladi. Esse janrining erkin va samimiy uslubi Bahodir Qobul asarlari tabiatiga oʻzgachalik, originallik baxsh etgan. Shuningdek, yozuvchining qissalari va hikoyalari bir-birining davomidek, mantiqiylik kasb etgan. Deylik, yozuvchining koʻp gap biladigan, soʻzga chechan Enasi, Otasi, muallif obrazi (bola obrazi), Mardon tentak kabi obrazlar u qissadan bu qissaga, yoki u hikoyadan bu hikoyaga koʻchib yuradi.

"Enayoʻl" qissasi dastlab "Sharq yulduzi" jurnalida "Oy yoʻli" nomi bilan chop etilgan edi.

Umuman olganda, har ikki nom ham qissaga mos tushadi. Chunki, qissada ham "Yoʻl" obrazi, ham "Oy" obrazi juda katta badiiy yuk olgan. Qissalar tilida folklor janrlariga xos nasriy sajʼ elementlari, xalqona badiiy uslub (takroriy soʻzlar) koʻzga tashlanadi. Misol uchun: "Xonlar bilan uch oy qovun, uch oy sovun, uch oy qovoq, uch oy chavoq yeb oxirida peshqovuz yeganlarning oʻzi bir mozorot" (nasriy sajʼ); "Oq guli oqdan oq", "sariq guli sariqdan sariq"; "Qora tortib qaro soniga kirganniyam, qaro bosib qaro urganniyam koʻchada yurishidan maʼlum"; "Bu bosh necha bor omon-omon, necha bor ushla-ushla, necha bor qochdi-qochdini oʻtkazgan"; "Enaning xayolini ilgʻab, xayolot ohangi, xayolot hangiga, hayolot nangiga, xayolot rangiga, xayolot shahdiga, gap mazasi, soʻz tigʻining tiliga quloq solib yotishdan ortigʻini koʻrmagan, bilmagan, eshitmagan" (takroriy soʻzlar); "Oʻgʻri-toʻgʻri, yosh-qari, katta-kichik, rais-dayus,

urilgan-surilgan, ko‘r-cho‘loq, boy-quloq, xayol-xiyol, xonu xoin, tuyoqli-tuyoqsiz, shapkali-shapkasiz, o‘txo‘r-sutxo‘r, oqsuyak-qorasuyak ekan demaydi" (juft antonim so‘zlar) va hokazo.

Qissalar bola obrazi tilidan hikoya etiladi. Xususan, "Enayo‘l" qissasida ham bola obrazi roviy vazifasini bajaradi. Aslida bu bola obrazining hayotiy prototipi yozuvchining o‘zi. Bola katta enasidan ko‘p ertaklar eshitgan. Bizningcha, Bahodir Qobul bolaligida enasi aytib bergan ertaklar, dostonlar, maqollar ta‘sirida ulg‘ayib-o‘sdi, bo‘ljak adibning badiiy olami shu tarzda shakllana borgan. Shuning uchun uning badiiy uslubida xalqona ohang yetakchilik qiladi. Zero, mana bu satrlarga e‘tibor qarataylik: "Oq yo‘l Samarqandga Oydala oralab ketadi. O‘raydan o‘tib, Taypoqsoyda taypanglab, Gulbuloqda qarsillab, Oqtepada gursillab katta kitoblarda yozilganidek, har dashtining yuzidan jannat ko‘rinadigan va har dalasidan Eram bog‘i bilinadigan Samarqandga jo‘naydi". Yozuvchi ulg‘ayib, ellikni qoralagan bo‘lsa ham, uning xayolida bolaligida eshitgan ertak-dostonlar qahramoni doim u bilan birga yashaydi. Yozuvchi Bahodir Qobulning ichida uni hamon tark etmagan musaffo, beg‘ubor bola hali ham yashaydi. O‘sha muallifni hamon tark etmagan tuyg‘ulari musaffo osmondek toza bola yozuvchining ilhomiga ilhom, ijodiga ijod qo‘shadi. Ikkinchidan, yozuvchiga so‘z sehrini suydigan kishi, uning Enasi hisoblanadi. Shuning uchun yozuvchi "Enayo‘l"da shunday yozadi: "Men esa enamning ertaklarini yaxshi ko‘raman.

Keragidan ortiq soddaligi uchun kulgiga qolgan "Lakipay va Jonipay"niyam, aytishlaridan oldin yig‘lab olib, kamiga yana yig‘lab-yig‘lab aytadiganlari "Erdona Cho‘kki"niyam....

...Nasib bo‘lsa ertaklarni boshqa safar aytib berarman. U ertaklar juda uzun. Enam salkam yuz yildan beri aytadilar. O‘zlariga o‘zlari ertak aytib o‘tiradilar. Ertaklarni qayta so‘rash mumkin.

Lekin xayollarga aralashish mumkin emas" .

Xalq ertaklari odatda, an'anaviy boshlama (Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqqimchi ekan, chumchuq chaqqimchi ekan...) va yakun (...murod-maqsadlariga yetishibdi. Qirq kecha-kunduz to‘y-tamosha berishibdi...) bilan yakunlanadi. Xuddi shu an'anani Bahodir Qobulning qissalarida kuzatish mumkin. Jumladan, "Enayo‘l" qissasining har bir faslini quyidagicha yakun bilan tamomlaydi: "Bir narsani yo‘qotganday, nima yo‘qotganini o‘ziyam bilmaydigan, yo‘qotganini qidirgan, jalanglagan Oy bo‘ladi. Qimirlagan qora tanishday tuyulib orqasidan ergashadi. Javdiragan oy bo‘ladi. Oq yo‘ldan engan bilan teppa-teng parillab jo‘naydi. Yursa yuradi, to‘xtasa to‘xtaydi... o‘rlagan bilan izma-iz izillab o‘rlaydi... Tabiiyki, bu yakun xalq ertaklaridan aynan olinmaydi. Balki, yozuvchi xalqona an'anaviy yechimni yangilaydi, zamonaviylashtiradi.

Qissa sarlavhalarga ajratilgan 16 fasldan tashkil topgan. Agar diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak: sarlavhalarda ham yozuvchi "Yo‘l" so‘ziga badiiy-g‘oyaviy yuk tashlaydi. Masalan, sarlavhalarni xotirlaymiz: "Yo‘l ko‘rish", "Kimga qora jar, kimga keng ko‘cha", "Yo‘l-yo‘lakay", "Nafaqa yo‘lida", "Tavba yo‘lining tashvishi", "Yo‘l boshida dovul urgan dovul", "Yana yo‘ldosh bo‘lamizmi, jo‘ra", "Yo‘l qaragan mustarlar", "Yo‘l to‘la mezon qo‘shig‘i", "Oy yo‘li", "Yo‘lning ko‘zi hamisha ochiq", "Yo‘l sarson, yigit sarson", "Ko‘z ochiq – yo‘l ochiq", "Enayo‘l", "Enayo‘l tushlari", "Jar hamisha uyg‘oq". Ikki sarlavhadagi "jar" va "ko‘cha" so‘zlari ham bevosita "Yo‘l" degan so‘z bilan tutashadi. Demak, qissada "Yo‘l" so‘zi muhim markaziy fokus vazifasini bajaradi.

Nazarimizda, qissa fasllarining yakunida takror berilayotgan satrlarda aks etgan "Oy" va "Yo‘l" ramziy obrazlari o‘z-o‘zidan bir-birini badiiy mantiqiy jihatdan to‘ldirib, emotsional, xalqona, ramziy modern obrazli metaforik obrazlilikka aylanadi. Bizningcha, jalanglagan,

ergashgan, javdiragan, engan, parillab jo'nagan, yursa yurib, to'xtasa to'xtab, o'rlagan, izma-iz izillab o'rlagan Oy badiiy tasvirlari naqadar xalq ijodi bilan tutashib ketgan bo'lsa, ikkinchidan yozuvchining bugungi o'zbek qissachiligiga olib kirgan yangi ijodiy uslubi sifatida baholanishi kerak. Qolaversa, Bahodir Qobulning ertaklar olamida yashaydigan va yashayotgan bola qalbi mana shunday chiroyli badiiy yechimni topishga turtki bo'lgan.

#### **REFERENCES**

1. Pardayeva Z. Badiiy-estetik tafakkur rivoji va o'zbek romanchiligi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2002 yil.
2. Normatov U. Qurbonov D. Romaning yangi umri. Jahon adabiyoti, 2001 yil, 9-son.
3. Bahodir Qobul "Enashamol"-2008. Termiz-Shahrisabz-Qarshi